Аннотация. В данной статье изучены современные методы организации и анализа аудита долгосрочных активов хозяйствующих субъектов. На основе международного опыта проанализированы преимущества применения технологий искусственного интеллекта (AI), цифровых двойников (Digital Twin) и автоматизированных систем амортизации в США, Германии и Японии, а также проведено сравнение с практикой Узбекистана. Результаты исследования показывают, что аудит долгосрочных активов в Республике Узбекистан в основном осуществляется с использованием программы 1C: Бухгалтерия, посредством ручного ввода данных. В статье предложена концептуальная модель цифрового аудита, основанная на принципах цифровой трансформации, включающая пять этапов развития. Внедрение данной модели позволит ускорить аудиторский процесс на 40–50%, снизить влияние человеческого фактора и создать аналитический механизм, соответствующий международным стандартам.

Ключевые слова: долгосрочные активы, аудит, анализ, цифровые технологии, искусственный интеллект, цифровой двойник, автоматизированная система, модель аудита, BHMS, МСФО 16.

KIRISH

So’nggi yillarda jahon miqyosida raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, moliyaviy hisobot va audit tizimlarida sun’iy intellekt, blockchain hamda raqamli twin texnologiyasi kabi ilg’or yechimlarning qo’llanilishi uzoq muddatli aktivlar hisobini tashkil etish va tahlil qilish jarayonlariga tubdan yangi yondashuvlarni shakllantirmoqda. Xalqaro miqyosda, xususan, Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS), Xalqaro audit standartlari (ISA) hamda OECD tamoyillari asosida moliyaviy shaffoflikni oshirish, aktivlar baholashining aniqligini ta’minlash va audit jarayonini avtomatlashtirish ustuvor yo’nalish sifatida qaralmoqda [1]. Shu bois,



iqtisodiyotni modernizatsiya qilayotgan O'zbekiston uchun ushbu tendensiyalarni milliy amaliyotga tatbiq etish alohida dolzarblik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida bu yo'nalishda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentning 2020–2025-yillarga mo'ljallangan Moliya sohasini rivojlantirish konsepsiyasi, "Audit faoliyatini rivojlantirish konsepsiyasi", shuningdek, 2023–2030-yillarga mo'ljallangan "Raqamli O'zbekiston" strategiyasida buxgalteriya hisobi va audit tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, aktivlar auditi tizimini raqamlashtirish hamda moliyaviy hisobotlar ishonchligini oshirish maqsad qilingan [2]. Shuningdek, uzoq muddatli aktivlarning qayta baholanishi, amortizatsiya siyosatini aniqlash va audit tekshiruvlarini raqamli nazorat tizimiga o'tkazish zarurati kuchaymoqda.

Uzoq muddatli aktivlar xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish salohiyatini, moliyaviy barqarorligini va raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy resurs hisoblanadi. Ularning to'g'ri hisobga olinishi, baholanishi va samarali auditi korxona aktivlarining haqiqiy qiymatini aks ettirishda, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan, uzoq muddatli aktivlar auditi jarayonlarini takomillashtirish nafaqat buxgalteriya amaliyotining, balki korporativ boshqaruv va investitsion siyosatning ham ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi [3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (IFRS) bosqichma-bosqich o'tish, buxgalteriya hisobi va audit tizimini raqamlashtirish jarayonlari jadallashmoqda. Bu esa uzoq muddatli aktivlarning qayta baholanishi, amortizatsiya siyosatini shakllantirish hamda audit tekshiruvlarini avtomatlashtirish masalalarini dolzarb qilmoqda. Ayniqsa, inflyatsiya sharoitida aktivlarning haqiqiy qiymatini aniqlash va bu ma'lumotlarni audit xulosasida to'g'ri aks ettirish korxonaning moliyaviy natijalarini ishonchli tahlil qilish uchun zarurdir [4].

Mazkur yo'nalishda mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Akhmedjanov K., Ibragimov A.K., Xasanov B.A., Dusmuratov R., Makhmudov A.N. kabi olimlar o'z ishlarida aktivlarni baholash, ularning eskirishini hisoblash va audit tekshiruvlarini tashkil etish masalalariga e'tibor qaratganlar. Shuningdek, xorijiy mualliflardan Arens A.A., Messier W.F., Hayes R. kabi tadqiqotchilar auditorlik dalillarini yig'ish, riskka asoslangan yondashuvni qo'llash va ichki nazorat tizimini baholashning zamonaviy konsepsiyalarini ishlab chiqqanlar [5].

Shunga qaramay, mavjud tadqiqotlarda uzoq muddatli aktivlarning auditi va tahlilini raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirish, raqamli tvn modeli orqali aktivlar holatini doimiy monitoring qilish hamda IFRS transformatsiyasi jarayonida inflyatsiyani inobatga olgan qayta baholash mexanizmini ishlab chiqish masalalari yetarlicha yoritilmagan. Shu sababli, mazkur maqolada uzoq muddatli aktivlar auditi va tahlilini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari ishlab chiqiladi, amaliy tavsiyalar shakllantiriladi va ularning samaradorligi iqtisodiy subyektlar faoliyatida tahlil qilinadi [6].

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – uzoq muddatli aktivlarning hisobi, auditi va tahlilini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida optimallashtirish orqali audit samaradorligini oshirish hamda moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlashdir. Shu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar hal etiladi: uzoq muddatli aktivlar auditi va tahlilining amaldagi holatini baholash, raqamli texnologiyalar asosida audit jarayonlarini avtomatlashtirish yo'llarini ishlab chiqish, inflyatsiya sharoitida aktivlarning qayta baholanish mexanizmini takomillashtirish, raqamli tvn modeli asosida aktivlar monitoringini yo'lga qo'yish.

Natijada, maqola natijalari iqtisodiy subyektlar faoliyatida audit sifatini oshirish, moliyaviy hisobotlarning ishonchligini mustahkamlash, korxona aktivlaridan samarali foydalanish nazoratini kuchaytirish hamda milliy audit amaliyotini xalqaro talablarga yaqinlashtirishga xizmat qiladi [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda uzoq muddatli aktivlarning auditi va tahlilini takomillashtirish masalalarini o'rganishda ilmiylik, tizimlilik, taqqoslash, tahlil va sintez, induksiya-deduksiya hamda iqtisodiy modelashtirish metodlari qo'llanildi. Uzoq muddatli aktivlarning hisobini va ularning auditini tashkil etishdagi mavjud holat milliy va xalqaro me'yoriy hujjatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun, MHMS, IFRS (IAS 16, IAS 36, IAS 40) hamda ISA 500, ISA 540 standartlari asosida tahlil qilindi [8]. Ushbu yondashuv tadqiqotda qo'llanilayotgan nazariy va amaliy manbalarni uyg'unlashtirish imkonini berdi.

Tadqiqotning empirik bazasi sifatida O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritayotgan yirik sanoat korxonalari, jumladan, "OSIYO GRANT TEXTIL" MChJ, "BEKZAVOD YOG'–MOY" AJ, "SUN FLOWER SEEDS" MChJlarning 2018–2023-yillardagi moliyaviy hisobotlari va audit natijalari tahlil qilindi. Shuningdek, Davlat statistika qo'mitasi, Moliya vazirligi hamda O'zbekiston auditorlar palatasi tomonidan e'lon qilingan



ochiq ma'lumotlar ham qo'llanildi [9]. Mazkur ma'lumotlar asosida uzoq muddatli aktivlarning qayta baholanishi, amortizatsiya stavkalari, sof aktivlar qiymati va ularning moliyaviy natijalarga ta'siri iqtisodiy-statistik tahlil orqali baholandi.

Tadqiqotning nazariy-metodik asosini iqtisodiyot nazariyasi, buxgalteriya hisobi, moliyaviy tahlil va audit sohalarida faoliyat yurituvchi mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi. Jumladan, Akhmedjanov K., Khasanov B.A., Ibragimov A.K., Arens A.A., Hayes R., Messier W.F.larning ilmiy qarashlari tadqiqotning nazariy bazasini mustahkamlashda asos bo'ldi [10]. Shuningdek, metodologiyada raqamli tvn texnologiyasi, sun'iy intellekt asosida audit tekshiruvlarini avtomatlashtirish hamda IFRS transformatsiyasi sharoitida aktivlarni inflyatsiyaga mos qayta baholash yondashuvlari asosida innovatsion tahlil modeli ishlab chiqildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda uzoq muddatli aktivlar auditi va tahlilini raqamli transformatsiya sharoitida amalga oshirish bo'yicha yangi metodik yondashuv ishlab chiqildi. Xususan, auditorlik jarayoniga raqamli tvn modelini integratsiya qilish, aktivlarning holati bo'yicha real vaqt (real-time) monitoring tizimini yaratish, shuningdek, inflyatsiyani inobatga olgan qayta baholash algoritmini ishlab chiqish taklif etildi. Bu yondashuv audit samaradorligini oshirish, inson omilini kamaytirish hamda audit dalillarining ishonchligini ta'minlash imkonini beradi [11].

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi xo'jalik yurituvchi subyektlarida uzoq muddatli aktivlar auditi ko'p hollarda moliyaviy hisobot ma'lumotlariga asoslanadi. Biroq amaliyotda aktivlarning qayta baholanishi, eskirish me'yorlari va amortizatsiya siyosati turlicha talqin qilinmoqda. Ayrim korxonalarda buxgalteriya hisobida amortizatsiya usullarini tanlashda iqtisodiy foydalilik tamoyili to'liq inobatga olinmaydi, bu esa audit jarayonida moliyaviy natijalarning aniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [12]. Masalan, ayrim ishlab chiqarish korxonalarida tezlashtirilgan amortizatsiya usuli qo'llanilgan holda aktivlar real qiymatidan past baholanmoqda, bu esa sof foyda miqdorini sun'iy ravishda kamaytiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, uzoq muddatli aktivlar auditi samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarining joriy etilishi muhim omil hisoblanadi. Hozirda ko'plab rivojlangan davlatlarda digital twin (raqamli tvn) texnologiyasi yordamida aktivlarning holati real vaqt rejimida kuzatilib, eskirish darajasi aniqlanadi va audit jarayoniga integratsiya qilinadi [13]. O'zbekiston korxonalarida esa aktivlar haqidagi ma'lumotlar asosan Excel va 1C dasturlari orqali yuritiladi, bu esa tahlilni chuqurlashtirish imkonini cheklaydi. Shu bois, aktivlar auditi jarayonida raqamli tvn asosida vizual monitoring va avtomatik tahlil algoritmlarini qo'llash istiqbollari dolzarb masalalardan biridir.

Olib borilgan tahlillar asosida aniqlanishicha, uzoq muddatli aktivlar auditi bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarda xalqaro standartlar bilan muvofiqlik darajasi yetarli emas. Masalan, BHMS №5 "Asosiy vositalar" standartida qayta baholash, eskirishni hisoblash va ularning tahlilini o'tkazish tartibi qisqacha yoritilgan bo'lsa, IFRS (IAS) 16 standartida ushbu jarayonlar batafsil metodik asos bilan berilgan [14]. Shu sababli, milliy standartlarni xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirish, audit jarayonida aktivlar qiymatini real baholash, ularning samaradorligini aniqlash va moliyaviy hisobotlarga to'g'ri aks ettirish tizimini takomillashtirish muhim hisoblanadi.

Uzoq muddatli aktivlar auditi jarayonini takomillashtirishdan avval, amaldagi tizimning holatini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Quyidagi jadvalda O'zbekiston korxonalarida audit amaliyoti qanday yo'lga qo'yilgani, mavjud kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha takomillashtirish yo'nalishlari keltirilgan. Bu tahlil milliy audit tizimi holatini aniq ifodalab, xalqaro standartlarga integratsiya zaruratini asoslab beradi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston korxonalarida uzoq muddatli aktivlar auditi amaliyotining tahlili

№	Ko'rsatkichlar	Amaldagi holat	Aniqlangan muammolar	Takomillashtirish yo'nalishi
1	Amortizatsiya siyosati	Korxona ichki siyosatiga ko'ra belgilangan	Bir xillik yo'q, turli yondashuvlar	BHMS va IFRS asosida yagona metodika joriy etish
2	Aktivlarni qayta baholash tartibi	Yiliga 1 marotaba yoki zaruratga ko'ra	Real bozor qiymati bilan tafovut mavjud	Raqamli baholash modellarini joriy etish
3	Auditda foydalaniladigan dasturlar	1C va Excel	Real vaqt monitoring yo'q	"Digital Twin" texnologiyasini joriy etish
4	Auditorlik dalillarini shakllantirish	Asosan hujjatlar asosida	Fizik holat tahlili yetarli emas	Vizual va raqamli dalillar tizimini yaratish
5	Xalqaro standartlarga moslik	Qisman	IFRS 16 bilan tafovut mavjud	Milliy me'yorlarni IFRS bilan uyg'unlashtirish

Manba: muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi korxonalari amaliyoti asosida tuzilgan.



So'nggi yillarda xalqaro miqyosda audit jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish tendensiyasi keng tus olmoqda. Xususan, ilg'or mamlakatlarda auditda sun'iy intellekt (AI), raqamli tvn (Digital Twin), hamda avtomatik eskirish tizimlari kabi yechimlar qo'llanilib, bu jarayonlar auditning aniqligi va samaradorligini keskin oshirmoqda. Quydagi jadvalda AQSh, Germaniya, Yaponiya va O'zbekiston amaliyotlari o'rtasida solishtirma tahlil keltirilib, milliy tizimdagi mavjud imkoniyatlar va cheklovlar aniqlangan.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda audit jarayonlariga raqamli texnologiyalar chuqur integratsiya qilingan bo'lib, ular real vaqt rejimida tahlil, nazorat va prognozlash imkonini beradi. O'zbekiston amaliyotida esa 1C dasturi va qo'lda ma'lumot kiritish tizimlari asosiy vosita bo'lib qolmoqda, bu esa audit samaradorligini cheklaydi. Shu sababli, milliy audit tizimiga sun'iy intellekt, raqamli tvn va avtomatik tahlil modullarini joriy etish zaruriyati mavjud. Bu o'z navbatida moliyaviy hisobotlarning ishonchiligi va tahlil aniqligini sezilarli darajada oshiradi (2-jadval).

2-jadval. Xalqaro tajriba bilan solishtirma tahlil

Davlat	Asosiy me'yoriy standart	Auditda qo'llaniladigan texnologiya	Afzalliklar	O'zbekiston amaliyoti bilan farqi
AQSh	US GAAP	Sun'iy intellekt asosida tahlil	Yuqori aniqlik, tezkorlik	AI texnologiyasi joriy etilmagan
Germaniya	IFRS 16	Digital Twin (raqamli tvn)	Real vaqt monitoring	Bu texnologiya hali qo'llanilmaydi
Yaponiya	J-GAAP	Aktivlar eskirishini avtomatik hisoblash tizimi	Doimiy yangilanish	Manual hisob-kitoblarga tayaniladi
O'zbekiston	BHMS 5	1C va qo'lda kiritish	Oddiy, lekin tahlil past	Raqamli audit tizimi mavjud emas

Manba: muallif tomonidan IASB va KPMG (2023) ma'lumotlari asosida shakllantirilgan.

AQShda yirik audit kompaniyalari (masalan, Deloitte va PwC) sun'iy intellekt yordamida moliyaviy hisobotlarni tahlil qiladi. AI algoritmlari 100 mingdan ortiq operatsiyani 3 daqiqada tahlil qilishi va xatolikni 98% aniqlik bilan topishi mumkin. Bu jarayon inson auditori uchun 3–4 kun talab etadi. Natijada, audit samaradorligi 15–20 baravar oshgan, aniqlik esa 2% dan 98% gacha ko'tarilgan.

Germaniyada "Digital Twin" texnologiyasi asosida uzoq muddatli aktivlarning eskirish darajasi va foydalanish samaradorligi real vaqt rejimida kuzatilib boriladi. Masalan, sanoat korxonalarida har bir uskuna uchun raqamli model yaratiladi va bu model orqali aktivning haqiqiy foydalanish koeffitsiyenti aniqlanadi. Natijada, aktivlarning o'rtacha ishlash samaradorligi 92% gacha yetgan, audit hisobotlari tayyorlanish vaqti esa 30% ga qisqargan.

Yaponiyada aktivlar amortizatsiyasi ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlari orqali avtomatik hisoblanadi. Bu tizimlar eskirish normativlarini real foydalanish asosida yangilaydi. Natijada, hisob-kitoblarda inson xatosi darajasi 0,1% dan past, hisobotlar tayyorlanish tezligi esa 40% oshgan.

O'zbekiston korxonalarida aktivlar hisobini yuritishda asosan 1C: Buxgalteriya dasturi qo'llaniladi, biroq bu tizim avtomatik tahlil yoki AI integratsiyasiga ega emas. Ma'lumotlar ko'pincha qo'lda kiritiladi, bu esa subyektivlikka olib keladi. Natijada, audit davomiyligi o'rtacha 7–10 kun, aniqlik darajasi esa 80–85% atrofida.

Uzoq muddatli aktivlar audit jarayonida amortizatsiya siyosatini yagona standart asosida belgilash zarur. Auditda raqamli texnologiyalar, xususan "digital twin" va avtomatlashtirilgan tahlil vositalarini joriy etish aktivlar holatini aniq baholash imkonini beradi. Normativ bazani xalqaro IFRS standartlariga moslashtirish orqali audit natijalari shaffofligini oshirish mumkin. Auditorlar uchun aktivlarni qayta baholash, tahlil qilish va natijalarni vizualizatsiya qilish bo'yicha metodik qo'llanmalar ishlab chiqish lozim.

Fikrimizcha, ishlab chiqilgan takliflar amaliyotga joriy etilganda, uzoq muddatli aktivlar audit sifatining oshishi, moliyaviy hisobotlarning ishonchiligi va korxona aktivlaridan foydalanish samaradorligining ortishi ta'minlanadi.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xo'jalik yurituvchi subyektlarda uzoq muddatli aktivlar audit tizimi hozirda shakllangan bo'lsa-da, uning samaradorligi va ishonchiligi xalqaro talablar darajasida emas. Asosiy muammo – aktivlarni qayta baholash, amortizatsiya siyosatini tanlash va aktivlardan foydalanish samaradorligini aniqlashda yagona yondashuvning yo'qligidir. Shu sababli, mavjud milliy me'yorlarni xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (xususan, IFRS (IAS) 16 – "Asosiy vositalar") bilan uyg'unlashtirish zaruriyati mavjud [15].

Tadqiqot davomida o'rganilgan xorijiy tajribalar, jumladan, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Janubiy Koreya va Yaponiya amaliyotlari shuni ko'rsatadiki, uzoq muddatli aktivlar audit jarayonida raqamli tvn (digital twin) texnologiyasidan foydalanish aktivlarning real holatini aniqlash, ularning ishlash muddatini prognoz qilish va audit xulosalarining ishonchiligi oshirishga xizmat qilmoqda [16]. Shu bois, O'zbekiston korxonalarida ham



aktivlarni monitoring qilish, eskirish darajasini aniqlash va auditni avtomatlashtirishda sun'iy intellekt asosidagi tahliliy modullarni joriy etish zarur.

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi natijasida uzoq muddatli aktivlar auditi samaradorligi oshadi, audit xulosalarining ishonchligi mustahkamlanadi va korxonalarning moliyaviy holatini tahlil qilishda obyektivlik hamda shaffoflik ta'minlanadi. Natijada, mamlakatda moliyaviy hisobot tizimini raqamlashtirish va korporativ boshqaruvni takomillashtirish jarayonlari yangi bosqichga ko'tariladi [17].

Ushbu maqola tahlilidan ko'rinib turibdiki, raqamli texnologiyalar (AI, Digital Twin, ERP) joriy etilgan mamlakatlarda audit natijalari quyidagicha: vaqt tejallishi – 30–80% gacha, aniqlik darajasi – 95–99% oralig'ida, xatolik kamayishi – 10–15 baravar, hisobot tayyorlash tezligi – 2–3 baravar oshgan. O'zbekiston amaliyotida esa bu ko'rsatkichlar 80–85% aniqlik va uzoq muddatli qo'lda tahlil darajasida qolmoqda. Shu bois, maqola doirasida taklif etilayotgan raqamli tvn asosidagi audit tizimi joriy etilishi audit jarayonini 40–50% tezlashtiradi, inson omilini kamaytiradi hamda audit natijalarini xalqaro standartlarga yaqinlashtiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, xo'jalik yurituvchi subyektlarda uzoq muddatli aktivlar auditing samaradorligi bevosita raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasiga bog'liq ekanligi aniqlandi. Jahon tajribasida, xususan AQSh, Germaniya va Yaponiyada sun'iy intellekt (AI), raqamli tvn (Digital Twin) va avtomatik amortizatsiya tizimlarining audit jarayonlarida muvaffaqiyatli qo'llanilayotgani, natijada audit sifati va tezligi bir necha barobar oshgani kuzatildi. O'zbekiston amaliyotida esa uzoq muddatli aktivlar audit asosan 1C: Buxgalteriya dasturi orqali qo'lda ma'lumot kiritish asosida amalga oshirilmoqda, bu esa inson omilining kuchayishiga va audit natijalarining ishonchligi pasayishiga olib kelmoqda. Shu sababli, milliy audit tizimini raqamli transformatsiyaga tayyorlash hamda xalqaro standartlarga mos tahlil mexanizmlarini yaratish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Taklif etilgan raqamli audit modeli besh bosqichda tashkil etilgan bo'lib, unda raqamli ma'lumotlar bazasini yaratish, AI va Digital Twin texnologiyalarini joriy etish, avtomatik tahlil tizimlarini ishga tushirish hamda natijalarni integratsiyalashtirish hisobotlarda aks ettirish nazarda tutiladi. Ushbu modelni amaliyotga tatbiq etish audit jarayonini 40–50% tezlashtiradi, inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni 70–80% gacha kamaytiradi, uzoq muddatli aktivlardan foydalanish samaradorligini 15–20% oshiradi hamda xalqaro standartlarga muvofiqlik darajasini sezilarli yaxshilaydi.

Tadqiqot asosida ishlab chiqilgan takliflar shundan iboratki, uzoq muddatli aktivlar audit bo'yicha raqamli ma'lumot bazalarini shakllantirish va ularni yagona standart asosida yuritish zarur. Audit jarayonlariga sun'iy intellekt (AI) va Digital Twin texnologiyalarini bosqichma-bosqich joriy etish, BHMS hamda IFRS 16 talablari asosida raqamli audit modellarini amaliyotga moslashtirish va ularni milliy standartlarga integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, auditorlar malakasini oshirish maqsadida raqamli texnologiyalar bo'yicha o'quv dasturlarini joriy etish, korxonalarda uzoq muddatli aktivlar bo'yicha audit hisobotlarini blokcheyn texnologiyasi orqali himoyalash mexanizmini yo'lga qo'yish zarur.

Mazkur chora-tadbirlar amalga oshirilgach, O'zbekiston audit tizimi samaradorligi oshadi, moliyaviy hisobotlarning ishonchligi mustahkamlanadi hamda milliy amaliyot xalqaro standartlar darajasiga yaqinlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. OECD (2023). Corporate Governance and Transparency Guidelines.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PF–5953-son Farmoni; "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PQ–211-son qarori.
4. MHMS 5-son "Asosiy vositalar" va IFRS (IAS 16 "Property, Plant and Equipment") talablariga muvofiq.
5. Arens, A. A., Elder, R. J., & Beasley, M. S. Auditing and Assurance Services: An Integrated Approach. – Pearson Education, 2023.
6. Atamurodov S.Y. Uzoq muddatli aktivlar audit va tahlilini takomillashtirish yo'nalishlari, TDIU Ilmiy axborotlari, 2024-yil, №2.
7. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy konseptual takliflar asosida.
8. ¹ IFRS (IAS 16, IAS 36, IAS 40); ISA 500, ISA 540; O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, 2020-yil 13-aprel, O'RQ–614-son.
9. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi ochiq ma'lumotlar bazasi (<https://stat.uz>; <https://mof.uz>), 2024-yil ma'lumotlari.
10. Arens, A. A., Elder, R. J., & Beasley, M. S. Auditing and Assurance Services: An Integrated Approach. – Pearson Education, 2023.
11. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan metodologik model asosida.
12. Abdug'aniyev A.A. Audit nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2023.
13. Deloitte Insights. Digital twin technology in audit and asset management. – London, 2022.



14. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. BHMS №5 – Asosiy vositalar, 2020-yil.
15. International Accounting Standards Board (IASB). IFRS 16: Property, Plant and Equipment. – London, 2023.
16. KPMG Global Insights. Digital transformation in audit systems. – 2022.
17. Atamurodov S.Y. Uzoq muddatli aktivlar auditi va tahlilini takomillashtirish yo'nalishlari. – Toshkent, 2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
